

O'ZBEK OPERA SAN'ATI USTUNLARI TURKUMIDAN

Egamov Oxunjon Saidovich

Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti Musiqa ta'lifi va san'at mutaxassisligi

I bosqich magistranti

O'zbek qo'shiqchiligi va opera san'atiga bebaho hissa qo'shgan san'atkorlardan biri Halima Nosirovadir. Halima Nosirova ayniqsa o'zbek opera san'atida alohida maktab yaratdi va bu noyob san'at rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Halima Nosirova 1913 yilda Qo'qon yaqinidagi Tog'lik qishlog'ida tavallud topdi. Otasi Muhammadnosir aka kosib bo'lsada, qo'shiq va she'rlardan xabardor bo'lib, yosh Halima qalbida san'atga havas uyg'otdi. Otasining bevaqt vafotidan so'ng qiyin ahvolda qolgan oila onasi Xosiyatxon va opalari Xojar va Oyishalar bilan Qo'qon shahriga ko'chib kelishadi. Yosh Halimani bolalar uyiga topshirishadi. 1929 yilda Toshkentdagi xotin-qizlar bilim yurtiga o'qishga qabul qilinadi. Shu yerda Ali Ardobus rahbarlik qilayotgan badiiy havaskorlik to'garagiga dugonalari Shohida Maxsumova, Nazira Aliyevalar bilan qatnay boshlaydi. Tezda ustozlarning nazariga tushgan Halima Nosirova 1925 yilda bir guruh yosh san'atkorlar bilan Bokudagi teatr bilim yurtiga o'qishga yuboriladi. Ish faoliyatini hozirgi milliy akademik teatrda boshlaydi. Qator obrazlarni yaratadi. So'ngra Moskva Davlat konservatoriysi qoshidagi o'zbek opera studiyasida ta'lim oladi. 1929-1939 yillar mobaynida o'zbek musiqali drama teatrda ijod qildi va xilma-xil obrazlarni yaratdi. 1939 yildan boshlab to kuchdan qolgunga qadar A.Navoiy nomidagi o'zbek opera va balet akademik teatrda ijod qildi va ushbu qutlug' dargohida o'z ijrochilik maktabini yaratdi. "Layli va Majnun", "Gulsara", "Karmen", "Bo'ron", "Maysaraning ishi", "Zaynab va Omon", "Xorazm qo'shig'i", "Ulug'bek" singari o'nlab operalardan bosh obrazlarni qo'shiqlarini kuyladi. Halima Nosirova o'zbek milliy ashula va qo'shiqlarini betakror ijrochisidir. Uning ijrosida "Ushshoq", "Chorgoh", "Bayot", singari xalq ashulalari alohida o'ziga xos uslub bilan ijro etiladi. Men o'zbek kuy va ashulalarini, maqomlarini sevimli hofizlarimiz va ustoz sozandalaramiz Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Xoji Abdulaziz, Muhiddin Qori Yoqubov, Domla Halim Ibodov, Yusufjon Qiziq, Usta Olim Komilov, Abduqodir Ismoilov, Ahmadjon Umrzoqov, Madrahim She'roziydan o'rgandim, - deydi Halima Nosirova. San'atkor tushunchasida qo'shiq insonning mehnatida, hayotida, taqdirida doimiy yo'ldoshidir. Xalqning sevimli san'atkori Halima Nosirova katta Farg'ona, Toshkent, Chirchiq kanallari, Kattaqo'rg'on suv ombori, Farxod GES qurilishlarida. Mirzacho'l, Qarshi, Jizzax, cho'llarini o'zlashtirishda, dahshatli urush yillarida xalq ruhini ko'tarishda o'z san'ati bilan faol qatnashdi. Halima Nosirova "O'zbekfilm" kinostudiyasida suratga olingan "Asal", "Frontga sovg'a", "Maftuningman", filmlarida obrazlar yaratdi va kino sohasiga ham hissa qo'shdi. Halima Nosirovaning yorqin san'ati va iste'dodidan ta'sirlangan bir qancha xorijiy tanqidchilar uning san'atiga yuksak baho bergenlar. Suriyada chiqadigan "Lison ash shaab" va Hindistonda bosiladigan "Steystmen" gazetalari o'zbek qo'shiqchisini nihoyatda yoqimli va jozibador, dillarni rom qiluvchi ovozi haqida 1956 yilda samimi satrlarni yozgan. Uning bulbulsifat ovozi o'zbek san'atkori timsolida Hindiston, Birma, Livan, Misr, Eron, Xitoy, Kanada kabi o'nlab mamlakatlarda yoyilgan. Halima Nosirova hayotligidayoq ikki ajoyib narsasi bilan o'ziga haykal o'rnatdi. Biri chinakam xalqchil san'ati, ikkinchisi shogirdlari, izdoshlari bilan ulug' baxtga erishganlidir. Uning san'atdagi xizmatlari munosib baholangan bo'lib,

“O’zbekiston xalq artisti” faxriy unvoniga sazovor bo’ldi. Mustaqillik sharofati bilan “Buyuk xizmatlari uchun” ordenini ko’kragiga taqish baxtiga tuyassar bo’ldi. O’zbek san’atining ulug’ namoyandasasi, betakror ovoz sohibasi Halima Nosirova 90 yosh umr ko’rib 2002 - yilda Toshkent shahrida vafot etdi.

O’zbek professional musiqa va kompozitorlik san’atining arboblaridan biri Mutal Burxonov 1916 yil 5 mayda Buxoro shahrida tavallud topdi. Dastlabki musiqa sabog’ini Samarqand shahrida musiqa va xoreografiya institutida oldi. So’ngra Moskva konservatoriyasiga o’qishga kirib, 1949 yilda kompozitorlik va driyyorlik mutaxassisliklari bo’yicha tugatdi. Bu dargohda professorlar S.N.Vasilenko, G.A.Stolyarovlar singari musiqa san’atining yetuk mutaxassislaridan saboq oladi. Barcha jabhalarida faol ishtirok etadi. 1955-1960 yillarda O’zbekiston kompozitorlari uyushmasiga rahbarlik qiladi. M.Burxonov kompozitorlik san’atining turli yo’nalishlarida ijod qildi va bir-biridan jozibali asarlari yaratdi. Uning yaratgan asarlari quydagilardan iboratdir: simfonik va vokal - simfonik asarlari: “O’zbekiston qizi” syuitasi (1934), “Yashnayotgan o’lka” kontatasasi (1949), “Bahor qushlari” vokal poemasi (1951), “Ibn Sino” (1957), xor va simfonik orkestri uchun “Oda” (1959), “Alisher Navoiyga qasida”(1968). Vokal - xoreografik poemalari: “Oq-oltin” (1972), “Noma’lum soldatga” (1975), “Namedonam chi nom dorat” romans-poema (1979), “Shoir orzusi” balladasi (1976), “Abadiy xotira” rekviyemi (Usmon Nosir, A.Cho’lpon she’rlari asosida) (1996), kamer cholg’u asarlari: fortepiano triosi (1939), “Bahoriy raqslar”, “Elegiya” (1983), skripkachilar ansamblı

uchun vals. Romanslar: “Ey bulbul” A.Loxutiy she’ri (1935), “Ishqida” Uyg’un she’ri (1943), “Dilbarimo” A.Loxutiy she’ri (1943), “Tabassum qilmading” A.Navoiy g’azali (1946), “Seni sog’indim” Uyg’un she’ri (1945), “Unutmas mening bog’im” U.Nosir she’ri (1967), “Yurak sadosi” T.To’la she’ri (1970), “Nega tark etding meni” A.Fitrat (1989), “Topmayin yorni” A.Cho’lpon she’ri (1991), “Hop didam” A.Loxutiy ruboyisi asosida. Xor ijrolari uchun: O’zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi (uch xil muharrirlik o’zgarishida) T.Fattoh she’ri (1946), T.Fattoh va T.To’la she’rlari (1977), A.Oripov she’ri (1992), 6 ta xalq qo’shig’i asosida akopellalar (1952), Qoraqalpoq qo’shiqlari asosida akopellalar (1950).

Sahna asarlari: “A.Navoiy operasi” (1986), “Boy ila xizmatchi” (1958), “Oygul va Baxtiyor” (1978). Kinofilmarga musiqalar: “Boy ila xizmatchi” (1953), “Ibn Sino” (1957), “Orol baliqchilari” (1958), “Maftun bo’ldim” (1958) ikkalasi ham I.Akbarov va M.Leviyev bilan hamkorlikda yaratilgan. “Samolyotlar qo’nolmadi” (1963), “Surayyo” (1964), “Ufq ortida yo’l”, “Ikki dil dostoni” I.Akbarov bilan hamkorlikda yaratilgan (1970). M.Burxonovning turli musiqiy yo’nalishlarda ijod qilganligini yuqoridagi asarlari namunalaridan ko’rish mumkin. M.Burxonovning o’zbek professional musiqa san’ati oldidagi katta xizmatlari munosib taqdirlangan. 1964 yilda Qoraqalpog’iston Respublikasi davlat mukofoti, 1964 yil O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan san’at arbobi, 1970 yilda O’zbekiston Respublikasi davlat mukofoti, 1976 yilda O’zbekiston xalq artisti faxriy unvonlari va mukofotlariga sazovor bo’lgan. Xorazm an’anaviy qo’shiqchilik san’atining mashhur namoyandasasi Komiljon Otaniyozov 1917 yil 20 iyulda Xorazm vohasi Shovot tumanidagi Bo’yrachi qishlog’ida tavallud topdi. Uning otasi Otaniyoz qori Oxun Polvonniyoz o’g’li Xivadagi Arabxon madrasasida mudarrislik qilgan bo’lib,

Niyoziy taxallusi bilan g'azallar yozib bir necha devon chop ettirgan. Yosh Komiljon Matpano ota, Matyoqub Harratov, Xojixon Boltayev, Matkarim hofiz, Madrahim She'roziy, Bola Baxshi singari ustozlardan saboq olgan, tez orada o'zi ham mashhur hofiz bo'lib taniladi. Xorazm maqomlarini, dostonlarini ijro etish bilan birga o'ziga xos shunday yangi bir uslub yaratdiki, u yaratgan qo'shiqlar hozirgacha hofizlarimiz tomonidan sevib kuylanadi, Uning qo'shiqlar dasturi juda salmoqli bo'lib, yuzlab qo'shiqlarni o'z ichiga olgan edi.

"Xorazm segohi", "Ulturgisi", "Chorgoh", "Feruz I-II-III", "Suvora", "Oshiq bo'lmisham", "Na tilar Mandan", "Salom sizga Xorazmdan", "Ayrılma", "Nasihat", "Xush keldingiz", "Sallamno", "Naylaram" singari qo'shiqlari shular jumlasidandir. Uning dasturidan qoraqalpoq, turkman, tojik, qozoq, hind, ozarbayjon qo'shiqlari ham keng o'rin olgan bo'lib, hofiz qo'shiq aytish bilan birga didli g'azallar ham bastalar edi. U 1952-1955 yillarda Toshkent davlat konservatoriyasida ta'lif oldi, bastakorlik yo'llarini o'rgandi. A.Stepanov, S. Xayitboyev bilan hamkorlikda "Aziz va Sanam", "Oshiq G'arib", "So'nggi xon" dramalariga musiqalar bastaladi. Komiljon Otaniyozov Oghahiy nomli Xorazm viloyat teatrinda aktyor sifatida qator ajoyib obrazlar yaratgan. "Farhod va Shirin"dagi Farhod, "Tohir va Zuhra"dagi Tohir obrazlari ajib bir sayqal topganki, hali-haligacha ko'rgan odamlar havas bilan eslaydilar. Komiljon Otaniyozov baland va keng qamrovli ovozi, yuksak ijrochilik madaniyati bilan o'zbek qo'shiqchilik san'atini olamga yoydi. U Xitoy, Hindiston, Birma, Afg'oniston, Kombodja, Tailandda gastrollarda bo'lib, yuz minglab odamlarni o'z san'atidan bahramand etdi. Komiljon aka juda ko'p shogirdlar yetishtirdi. Xorazm musiqa san'atini 50-60 yillardagi rivoji

Komiljon akaning nomi bilan bog'liq. Ustoz juda ko'p ashula va raqs ansambllarini tashkillab unga badiiy rahbarlik qildi. Komiljon Otaniyozovga O'zbekiston, Turkmaniston, Qoraqalpog'iston xalq artisti faxriy unvonlari berilgan. Uning jo'shib kuylagan qo'shiqlari, hozirgacha muxlislar qalbini rom etib kelmoqda. El suygan hofiz Komiljon Otaniyozov 58 yil umr ko'rib 1975 yilda vafot etdi. Urganch tumanidagi Imorat buva qabristoniga, otasi Niyoziy yoniga dafn qilingan. Uning nomi maktablarga, ko'chalarga, filarmoniya, ansambllarga berilib abadiylashtirilgan. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentimiz farmoniga binoan «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlangan.

Fattohxon Mamadaliyev deganda an'anaviy ijrochilik bo'stonining nodir ovoz sohibi, el suygan san'atkor, qo'shiqchilik olamida o'ziga xos uslub va ijrochilik yo'lini yaratgan manzur nafas hofiz ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Ustoz ovozidagi mahzunlik, serjilo nolalar, sadolanish xususiyatlari eshituvchini befarq qoldirmaydi. Fattohxon Mamadaliyev 1923 yilda Andijon viloyati Baliqchi tumani eski Xalqulobod qishlog'ida tug'ildi. Yoshlikdan qo'shiqqa, san'atga bo'lgan havas bilan ustozlar nazariga tushdi va skripka chalib qo'shiq aytishni o'rgana boshladи. Uning qobiliyatini sezal bilgan taniqli hofiz va sozanda Umrzoq polvon Saydaliyev o'ziga shogirdlikka oladi va uning dovrug'i sekin-asta Xalqulobod atroflariga yoyila boshlaydi. Haqiqiy hofizlik davri esa Andijon shahriga kelib, muqim yashab va ijod qilgan davrdan boshlanadi. Andijon shahar madaniyat uyi qoshidagi maqom ansamblida qatnashchi va keyinchalik uzoq yillar badiiy rahbar bo'lib ishladi. Hamnafas do'sti Yo'ldoshali Qiyiqov bilan qator qo'shiqlar majmuasini yaratdi. Ular hamnafaslikda ijro etgan ashulalar respublika radiosida yozib olingan.

Fattohxon Mamadaliyevning Toshkentga kelib yashashi uning ijodida muhim burilish yasadi. Yangi-yangi qo'shiqlar dunyoga keldi. Farg'ona-Toshkent maqom yo'llarining ilmiy ijrochilik tahlilini to'zib chiqdi va shogirdlariga o'rgatdi. Uning respublika teleradio kompaniyasi qoshidagi maqomchilar ansamblidagi faoliyati, davlat filarmoniyasidagi va Toshkent davlat konservatoriyasi an'anaviy ijrochilik kafedrasidagi ilmiy pedagogik faoliyati bilan uyg'unlashgan holda ijobiy natijalar berdi. Fattohxon Mamadaliyevning yana bir katta xizmati shundaki, xalqimiz san'atining nodir durdonalaridan bo'l mish qator ijrochilik yo'llarini qaytadan tahlil qilib tikladi. Jumladan, «Nasrulloyi» musiqa yo'llariga so'z solib, uning talqinchasini, uforisini, soqinomasini yaratdi. "Miskin" ning beshta yo'lini, "Chorgoh" ning beshta yo'lini, "Umrzoq polvon ushshoqi" ning sokinomalarini qo'shib ushshoqlarning qadimiy ijrolarini tikladi. "Buzruk"ning surnay yo'llarini talqin qildi. Izlanishlar natijasida turkum sifatida "Savti Fattohxon" deb ijrochilarimiz va olimlarimiz tomonidan tan olindi. Musiqashunos olim Ravshan Yunusov bilan hamkorlik natijasida yuqorida nomlari tilga olingan ijro yo'llarini ilmiy tahlil qildi va «Milliy musiqa ijrochiligi masalalari» risolasi chop etildi. Ustoz Yunus Rajabiy ulgurmagan ko'p ishlarni amalga oshirdi. Eng asosiysi, shu barcha izlanishlar natijasini shogirdlariga sabot bilan o'rgatdi va magnit lentasiga muhrladi. Fattohxon Mamadaliyev ijro etgan "Etmasmidim", "Jononim menin", "Intizor", "Ko'ngil", "Oqibat", "Kokiling", "Dilkusho", "Qalandari", "Mo'g'ilchai qashqarchai ushshoq", "Girya", "Ey sabo" singari ashulalar alohida sayqal berilib ijro etilganligi bilan shinavandalarning qalbidan joy oldi. U ijro etgan "Dardu dilim" qo'shig'i Mo'g'uliston respublikasida bo'lib o'tgan "Osiyo musiqasi minbari" ilmiy anjuman festival tanlovida faxrli o'rinn egalladi. Fattohxon Mamadaliyev o'zining ohangrabo ovozi bilan o'nlab xorijiy davlatlar qo'shiksevarlarini ham o'ziga rom etdi. Muborak haj safarida bo'ldi. Ijodining yana bir yorqin qirrasi, she'riyat bilan oshno bo'ldi. Yaxshigina g'azallar yozib, o'zi kuylar bastalardi. U O'zbekiston bastakorlari uyushmasining a'zosi edi. Uning xizmatlari ayniqsa mustaqillik yillarda hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist", "O'zbekiston xalq hofizi" faxriy unvonlari, "Mehnat shuhrati", «El-yurt hurmati» ordenlari, Toshkent davlat konservatoriyasining professori deb tan olinishi ustoz xizmatlarining haqiqiy bahosidir. Benazir ovoz sohibi Fattohxon Mamadaliyev og'ir xastalikdan so'ng 1999- yil 4- aprel kuni bu yorug' olamdan ko'z yumdi va o'zi tug'ilgan jonajon qishlog'iga dafn qilindi.

ADABIYOTLAR

1. F. Nurullayev. "Musiqa ta'limida Buxoro folklor qoshiqlarini orgatishning ilmiy-metodik xususiyatlari"- (PhD) pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori diss.2021y.
2. Madrimov B.X. Ўқувчиларга эстетик тарбия беришда ўзбек мусиқа фольклорининг аҳамияти- Бухоро мусиқа фольклорининг тарихий- назарий ва амалий масалалари. Республика илмий-назарий анжуман материаллари 2020 йил 6 ноябрь.BuxDU-2020.
3. Nurullaev F.G. The role of folklore in the raising of children. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 12, 2020 Part III ISSN 2056-5852.
4. Нуруллаев Ф.Г., Композиционный и исполнительский процесс в музыке // «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 576-581.
5. Нуруллаев Ф.Г. Импровизаторское творчество в XX веке по сфере музыке// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 582-587.

6. Nurullayev F.G. FORMATION OF AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN ON THE EXAMPLE OF BUKHARA FOLKLORE SONGS. Euro-Asia Conferences 1 (1), 34-36.
7. Nurullayev F.G. METHODOLOGICAL REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF BUKHARA FOLK SONGS IN MUSIC EDUCATION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal 1 (01), 83-88.
8. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy faoliyati. THE MULTIDISCIPLINARE JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY, VOLUME-3, ISSUE-4, ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, SJIF 2022-2.889, 2023-5.384 ResearchBib IF: 8.848 / 2023, 14-19.
9. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Музыкально-историческое наследие центральной Азии (психологический настрой армии Темура). Психология XXI столетия, 18-20 марта 2020 года С. 115-118.
10. Нуруллаев Ф.Г. Мусиқа таълимида Бухоро фольклор қўшиқларига қўйиладиган методик талаблар. Pedagogik mahorat, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2020, 3-son. Buxoro. Б.175-180.
11. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся. Научно– методический журнал «Проблемы педагогики» №3(48). Москва 2020. С.15-17.
12. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Формирование эстетического воспитания детей на примере Бухарских фольклорных песен. «MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS» collection of scientific works of the international scientific conference Issue 4(260 Warsaw, Poland 2020. P. 139.
13. Nurullayev F.G., Madrimov B.K., Rajabov T.I. Teaching Bukhara Children Folk Songs in Music Lessons as an Actual Problem. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol.24, Issue 04, 2020 P. 6049.
14. Нуруллаев Ф.Г., Случайный выбор качественных характеристик материала по музыки или порядок его изложения в процессе создания музыки или исполнения опуса//«SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal. ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 588-593.
15. Nurullayev F.G. FORMATION OF AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN ON THE EXAMPLE OF BUKHARA FOLKLORE SONGS. Euro-Asia Conferences 1 (1), 34-36.
16. Nurullayev F.G. The Role and Significance of Folk Music in Raising Children. European Journal of Innovation in Nonformal Education(EJINE) Volume 2| Issue 5| ISSN:2795-8612 . Accepted 14 May2022.
17. Nurullayev F.G. METHODOLOGICAL REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF BUKHARA FOLK SONGS IN MUSIC EDUCATION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal 1 (01), 83-88.
18. Nurullayeva N.G., Nurullaeva N.K., Nurullaev B.G. Role and significance of folklor music in the upbringing of children of preschool age. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal. Vol.10, Issue 10, October 2020.

19. Nurullayev F.G. Узлуксиз таълим тизимида Бухоро фольклор қўшиқларини ўргатишнинг ўрни ва аҳамияти// O’zbekiston Milliy Universiteti xabarlari, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2021-yil 6-son.- Toshkent. B.177-186.
20. Нуруллаев Ф.Г., Музыкальный процесс в западной музыке// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021. - pp.570-575.
21. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся// Научно – методический журнал «Проблемы педагогики». №3 (48). - Москва 2020.- С.15-17.
22. Nurullaev F.G The Role and Significance of Folk Music in Raising Children. European Journal of Innovation in Nonformal Education(EJINE) Volume 2| Issue 5| ISSN:2795-8612. Accepted 14 May2022.
23. Nurillaev F.G. Results of Experimental Work on Teaching Bukhara Folk Songs in Music Education and their Effectiveness. International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD) Special Issue on Modern Trends in Science, Technology and Economy.P.106-109.Available Online: www.ijtsrd.com e-ISSN: 2456 – 6470
24. Нуруллаев Ф.Г., Норова Ш.У. Психология музыкальных дидактических игр на интегрированных занятиях// Вестник интергративной психологии. Журнал для психологов. Выпуск №17, 2018. – С.295-299.
25. **Nurillaev Farrukh Gaynullaevich**- The technology of organizing the aesthetic education of students by means of folk songs. European Chemical Bulletin (Scopus-Q3) ISSN2063-5346. 2023, 12 (Special Issue7), 1987-1996
26. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев. Моделирования педагогических с музыкальным уклоном действие объектов через математический аппарат в педагогике// Science And Education Scientific Journal, Issn 2181-0842, Volume 3, Issue 1, January 2022.589-595.
27. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев. Интерактивные уроки музыки по программы Steam// Science And Education Scientific Journal, Issn 2181-0842, Volume 3, Issue 1, January 2022.595-602.
28. Нодира Каримовна Нуруллаева. Методические аспекты музыкального образования, особенности обучения народных песен в 5-7 классах// Science And Education Scientific Journal, Issn 2181-0842, Volume 3, Issue 1, J-2022
29. Nurullayev F.G. Rustamov F.T. Education Of A Child By Music In The Early Period Of Life. Spectrum Journal of Innovation Reforms and Development, volume 22,December2023,ISSN(E):2751-1731.
30. Nurullayev F.G. Usmonov A.A. The Role Of Music Culture Lessons In The Growth Of The Consciousness Of The Student Youth And National Thinking. Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods. Volume 1, Issue 4, December, 2023<https://westerneuropeanstudies.com/index.php/1>